

The Importance of Memorizing Poems in the Development of Children's Speech

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Fergana State University

Associate Professor of the Department of Preschool Education, PhD

Suvonova Qizlarbas To'ra qizi

Preschool Education program

3rd-year student, Group 23.32

Abstract. This article discusses the pedagogical and psychological significance of memorizing poetry in the process of developing the speech of preschool children. The issues of increasing vocabulary, forming sound culture, developing memory and thinking, and cultivating aesthetic taste through memorizing poetry are analyzed. Methodological recommendations are also given for the effective organization of classes.

Keywords: speech development, memorizing poetry, vocabulary, phonemic hearing, aesthetic education, rhythm, imagination of images, articulatory apparatus.

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SHE'R YOD OLDIRISHNING AHAMIYATI

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedراس dotsenti, (PhD)

Suvonova Qizlarbas To'ra qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

23.32-guruh 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida she'r yod oldirishning pedagogik-psixologik ahamiyati

yoritilgan. Bolalarga she'r yodlash orqali lug'at boyligini oshirish, tovush madaniyatini shakllantirish, xotira va tafakkurni rivojlantirish, estetik didni tarbiyalash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq rivoji, she'r yodlash, lug'at boyligi, fonematik eshituv, estetik tarbiya, ritm, obrazlarni tasavvur, artikulyatsion apparat.

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическое и психологическое значение заучивания стихов наизусть в процессе развития речи у детей дошкольного возраста. Анализируются вопросы расширения словарного запаса, формирования звуковой культуры, развития памяти и мышления, а также воспитания эстетического вкуса посредством заучивания стихов. Также даются методические рекомендации по эффективной организации занятий.

Ключевые слова: развитие речи, заучивание стихов наизусть, словарный запас, фонематическое восприятие, эстетическое воспитание, ритм, воображение образов, артикуляционный аппарат.

Kirish.

Maktabgacha yosh davri bola nutqining eng jadal rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni faol o'rganadi, so'z boyligi kengayadi, bog'lanishli nutqi shakllanadi. Nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri – badiiy adabiyot, ayniqsa she'r yod oldirishdir. She'riy matnning ohangdorligi, ritmi va obrazlilik bolada tez va oson xotirasida qoladi hamda nutqiy faolligi oshadi.

Bolalar she'riyati — mazmun va shakl jihatidan bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda yaratilgan badiiy matnlar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi nafaqat estetik zavq uyg'otish, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya berish hamda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga she'r yod oldirish ularning nutqiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bolalarni:

- Lug‘at boyligini oshiradi, she‘rlar bolalarni yangi so‘zlar, iboralar, tasviriy vositalar bilan tanishtiradi. Masalan, Abdulla Oripov yoki Erkin Vohidov ijodidagi bolalar uchun yozilgan she‘rlar sodda, obrazli va mazmunan boy bo‘lib, lug‘at zahirasi kengaytirishga xizmat qiladi. Bola she‘rni yod olar ekan, yangi so‘zlarni talaffuz qiladi va nutqida qo‘llashni o‘rganadi.
 - Tovush madaniyatini shakllantiradi: she‘rning qofiyali va ritmik tuzilishi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi. Ayniqsa, tez aytishlar va qisqa she‘rlar fonematik eshituvni rivojlantiradi. Natijada bola tovushlarni farqlash, aniq va ravon gapirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.
 - Xotira va tafakkurni rivojlantiradi: she‘r yodlash mexanik emas, balki mazmunni tushungan holda amalga oshirilganda samarali bo‘ladi. Bola misralar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni anglaydi, obrazlarni tasavvur qiladi. Bu jarayon tafakkur, tasavvur va eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi.
 - Bog‘lanishli nutqni shakllantiradi: she‘r mazmunini qayta hikoya qilish, savollarga javob berish, she‘r asosida suhbat tashkil etish bog‘lanishli nutqni rivojlantiradi. Bola o‘z fikrini izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashga o‘rganadi.
 - Estetik va axloqiy tarbiya vositasi shakllanadi: she‘rlar orqali bolalarda Vatanga muhabbat, tabiatga mehr, do‘stlik, halollik kabi fazilatlar shakllanadi.
- Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida she‘r yod olish faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha quyidagi metodik ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.
1. Bolaning yosh xususiyatini inobatga olish – qisqa va sodda mazmundagi she‘rlarni tanlash.
 2. Sher yod olishda ko‘rgazmalilikdan foydalanish – rasmlar, predmetlar, sahnalashtirish elementlari.

3. Tarbiyachining ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatishi – tarbiyachi she’rni to‘g‘ri ohang va pauzalar bilan o‘qib berishi.
4. She’rni takrorlash va mustahkamlash – kichik qismlarga bo‘lib yod oldirish.
5. Ijodiy yondashuv – she’r asosida rasm chizish, rolli o‘yinlar tashkil etish.

Turli yosh guruhlarida she’r yod olish faoliyatlarini tashkil qilishdan asosiy maqsad bolalarni lug‘at boyligini oshirish. She’rlar orqali bolada yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtirishiga yordam berish. Bolalarni fonetik rivojlanish ta’minlash. She’r aytish jarayonida tovushlar aniq va ravon talaffuz qilishga o‘rgatish. Ritmik tuzilma artikulyatsion apparat (til, lab, jag‘ mushaklari) faoliyatini jadallashtirishdir. Bu jarayon nutq nuqsonlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

She’riy matnlar orqali bola gap qurilishining namunaviy shakllarini o‘zlashtiradi. Natijada grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq shakllanadi. She’r mazmunini tushuntirish, savol-javob asosida tahlil qilish va qayta hikoya qilish jarayoni izchil fikrlash va mantiqiy nutq rivojlanadi. Bolalarga she’r yod oldirish orqali ularda ifodali o‘qish intonatsiya, urg‘u va pauzani to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiriladi. Bu esa bola nutqining ta’sirchanligini oshiradi.

Bo‘ljak tarbiyachilar bolalar she’riyatidan samarali foydalanishlari uchun quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilishlari tavsiya etiladi:

- Bolaning yosh xususiyatlariga mos she’r tanlash;
- Ifodali o‘qish va namuna ko‘rsatish;
- She’rni harakatli elementlar bilan birlashtirish;
- Tovush ustida ishlashga yo‘naltirilgan she’rlar tanlash;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda uyda mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, tizimli va maqsadli tashkil etilgan she’riy mashg‘ulotlar nutqiy rivojlanish samaradorligini oshiradi, bolalar she’riyati nutq rivojining muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Bolalarga she’r yod oldirish ularning lug‘at boyligini

kengaytiradi, to'g'ri talaffuzni shakllantiradi, grammatik tuzilmani mustahkamlaydi hamda bog'lanishli va ifodali nutqni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim jarayonida she'riyatdan tizimli foydalanish bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarida she'r yod oldirish metodikasiga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F. Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik "Tafakkur" nashriyoti Toshkent - 2019
2. M.Q.Jabborova "Nutq o'stirish uslubiyoti" darslik FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi" Farg'ona 2025.
3. Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. — М.: Издательство Института Психотерапии, 2001. — 256 с.
4. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. — М.: Айрис-пресс, 2004. — 224 с.
5. Jabborova M.Q. Maktabgacha ta'limda nutq rivojlantirish metodikasi. — Farg'ona: FarDU nashriyoti, 2020. — 180 b.
6. Волкова Л.С. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004. — 704 с.